

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES

huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2025-yil 3-son

VOLUME 9 / ISSUE 3 / 2025

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2025.9.3

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



Crossref
Content
Registration

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

“Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences” huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 0931-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko‘paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Nashr bo‘yicha mas‘ul:

O. Choriyev

Muharrirlar:

Y. Yarmolik, Y. Mahmudov,
E. Mustafayev, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, M. Sharifova,
Sh. Beknazarova, E. Sharipov

Musahhih:

M. Tursunov

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar,
Sayilgoh ko‘chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Nashriyot litsenziyasi

№ 174625, 29.11.2023-y.

Jurnal 2025-yil 26-sentabrda bosmaxonaga topshirildi.
Qog‘oz bichimi: A4.
Shartli bosma tabog‘i: 23,5
Adadi: 100. Buyurtma: № 174.

Bosmaxona litsenziyasi

29.11.2023 № 174626

TDYU bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko‘chasi, 37.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

BOSH MUHARRIR

I. Rustambekov – Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI

B. Xodjayev – Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

MAS‘UL MUHARRIR

O. Choriyev – Toshkent davlat yuridik universiteti Tahririy-nashriyot bo‘limi boshlig‘i

TAHRIR HAY‘ATI A‘ZOLARI

A. Saidov – Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazining direktori, yuridik fanlar doktori, professor (Toshkent, O‘zbekiston)

E. Juchniewicz – Gdansk universiteti professori, huquq doktori (Gdansk, Polsha)

A. Younas – yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Pekin, Xitoy)

O. Okyulov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

J. Nematov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

Sh. Asadov – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Aminjonova – O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Rahimov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

O. Narzullayev – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

B. Murodov – O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

A. Muxamedjanov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

N. Niyazova – Toshkent davlat yuridik universiteti professori v.b., pedagogika fanlari nomzodi (Toshkent, O‘zbekiston)

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Вестник юридических наук – Yuridik fanlar axborotnomasi – Review of Law Sciences» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 0931.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:
О. Чориев

Редакторы:

Е. Ярмолик, Й. Махмудов,
Э. Мустафаев, К. Абдувалиева,
Ф. Мухаммадиева, М. Шарифова,
Ш. Бекназарова, Э. Шарипов

Корректор:

М. Турсунов

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1385.

Издательская лицензия

от 29.11.2023 № 174625.

Журнал передан в типографию
26.09.2025.

Формат бумаги: А4.

Усл. п. л. 23,5. Тираж: 100 экз.

Номер заказа: 174.

Лицензия типографии

от 29.11.2023 № 174626.

Отпечатано в типографии

Ташкентского государственного
юридического университета.

100047, г. Ташкент, ул. Сайилгох, дом 37.

© Ташкентский государственный
юридический университет

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

И. Рустамбеков – доктор юридических наук, профессор, врио ректора Ташкентского государственного юридического университета

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

В. Ходжаев – доктор юридических наук, профессор, проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

О. Чориев – начальник редакционно-издательского отдела Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

А. Саидов – доктор юридических наук, профессор, директор Национального центра по правам человека Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

Э. Юхневич – доктор права, профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

А. Юнас – доктор философии по юридическим наукам (Пекин, Китай)

О. Окюлов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ж. Нематов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ш. Асадов – доктор юридических наук, профессор Академии государственной политики и управления при Президенте Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

М. Аминжонов – доктор юридических наук, доцент Правоохранительной академии Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

М. Рахимов – доктор философии по юридическим наукам, доцент Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

О. Нарзуллаев – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

В. Муродов – доктор юридических наук, профессор Академии МВД Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

А. Мухамеджанов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Н. Ниязова – кандидат педагогических наук, и. о. профессора Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

“Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences” legal scientific-practical journal was registered by Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020, with certificate number 0931.

The journal is included in the list of journals of the Supreme Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan. Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of materials of the journal are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:

O. Choriev

Editors:

Y. Yarmolik, Y. Makhmudov,
E. Mustafaev, K. Abduvalieva,
F. Mukhammadieva, M. Sharifova,
Sh. Beknazarova, E. Sharipov

Proofreader:

M. Tursunov

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Publishing department address:

100047. Tashkent city,
Sayilgoh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Subscription index: 1385.

Publishing license

№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the Printing house on 26.09.2025.

Paper size: A4.

Cond.p.f: 23,5.

Units: 100. Order: № 174.

Printing house license

№ 174626, 29.11.2023.

Published in the Printing house of
Tashkent State University of Law.
100047. Tashkent city, Sayilgoh street, 37.

© Tashkent State University of Law

EDITOR-IN-CHIEF

I. Rustambekov – Acting Rector of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

B. Xodjaev – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

EXECUTIVE EDITOR

O. Choriev – Head of the Publishing Department of Tashkent State University of Law

MEMBERS OF EDITORIAL BOARD

A. Saidov – Director of the National Centre for Human Rights of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor (Tashkent, Uzbekistan)

E. Juchniewicz – Professor of the University of Gdansk, Doctor of Law (Gdansk, Poland)

A. Younas – Doctor of Philosophy (PhD) in Law (Beijing, China)

O. Okyulov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

J. Nematov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Sh. Asadov – Professor of the Academy of Public Policy and Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Aminjonova – Associate Professor of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Rakhimov – Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law (Tashkent, Uzbekistan)

O. Narzullaev – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

B. Murodov – Professor of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

A. Mukhamedjanov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

N. Niyazova – Acting Professor of Tashkent State University of Law, Candidate of Pedagogical Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 11 **SAFAROV DJAXONGIR ISMOILOVICH**
O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi asosida jinoyat qonunini takomillashtirish bo'yicha ayrim mulohazalar
- 19 **NARIMANOV BEKZOD ABDUVALIYEVICH**
Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini huquqiy tartibga solish: nazariy-huquqiy jihatlar va modellar

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 26 **GULYAMOV SAID SAIDAXRAROVICH**
Kiber huquqning nazariy asoslari: huquqiy tartibga solishning konseptual modeli
- 40 **MAMANAZAROV SARDOR SHUXRATOVICH**
Zamonaviy biotexnologiya sohasidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari
- 52 **SAMANDAROVA FERUZA BAXROMJON QIZI**
Davlat xaridlari bitimlarini maxsus shartnoma turi sifatida baholash
- 62 **ABDUVALIYEV BAHODIR ABDULXAYEVICH**
O'zbekiston Respublikasida aqlli shaharlar rivojlanishining huquqiy asoslarini tahlil qilish: hozirgi holat va takomillashtirish istiqbollari
- 74 **MAMADALIYEV AVVOLBEK ZIYOITDINOVICH**
Huquqni suiiste'mol qilish fenomeni to'g'risidagi qarashlar genezisi
- 84 **RAHMATOV AZIZBEK ISKANDAR O'G'LI**
Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlari va ularni takomillashtirish istiqbollari
- 97 **RODIONOV ANDREY ALEKSANDROVICH**
Blokcheyn texnologiyalarida ma'lumotlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solishning konvergensiya va divergensiya: Yevropa Ittifoqi "Ma'lumotlar to'g'risida"gi qonuni tajribasi hamda O'zbekiston uchun istiqbollar
- 105 **SAIDOV MAQSUDBEK NORBOYEVICH**
Mas'uliyati cheklangan jamiyatda ulushni sotish munosabatlarining huquqiy tartibga solinishi: nazariya va amaliyot

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI. IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI. HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

- 117 **SULTONOVA SEVINCH BEKMUROD QIZI, MIRZAYEV ISLOMJOX XUSHNAZAR O'G'LI**
Arizani ko'rmasdan qoldirish va xususiy shikoyat qilish huquqi: amaliyot, muammo va takliflar

12.00.06 – TABIIY RESURLAR HUQUQI. AGRAR HUQUQ. EKOLOGIK HUQUQ

- 124 **RAJABOV NARIMAN SHARIFBAYEVICH**
Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida O'zbekiston milliy standartlashtirish tizimini rivojlantirish istiqbollari

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 133 **NIYOZOVA SALOMAT SAPAROVNA**
Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirgan shaxsga jazo tayinlashda jabrlanuvchi xulq-atvorining e'tiborga olinishi
- 143 **CHORIYEV ANVAR QO'ZIYEVICH**
Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilashning ijtimoiy zaruriyati

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI

- 153 **SULTONOVA LOBAR MAMARAYIM QIZI**
Xalqaro hamkorlikda ekstraditsiya tushunchasi, ahamiyati va roli

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

168 **YUSUPOVA FARINGIZ O'KTAM QIZI**

Tibbiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashning xalqaro-huquqiy va kontseptual asoslari

177 **RASBERGENOVA SARBINAZ ALISHEROVNA**

Qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqini ta'minlash sohasida mintaqaviy shartnomaviy-huquqiy mexanizmlar

12.00.12 – KORRUPSIYA MUAMMOLARI

187 **MIRZAYEVA MOHINA SROJIDDINOVA**

O'zbekistonda yo'l-transport infratuzilmasi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlar va ularni bartaraf etish mexanizmlari

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО. ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

- 11 **САФАРОВ ДЖАХОНГИР ИСМАИЛОВИЧ**
Некоторые суждения по совершенствованию уголовного законодательства на основе новой редакции Конституции Республики Узбекистан
- 19 **НАРИМАНОВ БЕКЗОД АБДУВАЛИЕВИЧ**
Правовое регулирование деятельности негосударственных некоммерческих организаций: теоретико-правовые аспекты и модели

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

- 26 **ГУЛЯМОВ САИД САИДАХРАРОВИЧ**
Теоретические основы киберправа: концептуальная модель правового регулирования
- 40 **МАМАНАЗАРОВ САРДОР ШУХРАТОВИЧ**
Особенности гражданско-правовых отношений в сфере современных биотехнологий
- 52 **САМАНДАРОВА ФЕРУЗА БАХРОМЖОН КИЗИ**
Оценка договоров государственных закупок как особого вида договора
- 62 **АБДУВАЛИЕВ БАХОДИР АБДУЛХАЕВИЧ**
Анализ правовых основ развития умных городов в Республике Узбекистан: современное состояние и перспективы совершенствования
- 74 **МАМАДАЛИЕВ АВВОЛБЕК ЗИЁИТДИНОВИЧ**
Генезис взглядов на феномен злоупотребления правом
- 84 **РАХМАТОВ АЗИЗБЕК ИСКАНДАР УГЛИ**
Механизмы финансирования предпринимательской деятельности и перспективы их совершенствования
- 97 **РОДИОНОВ АНДРЕЙ АЛЕКСАНДРОВИЧ**
Конвергенция и дивергенция гражданско-правового регулирования данных в блокчейн-технологиях: опыт закона ЕС о данных и перспективы для Узбекистана
- 105 **САИДОВ МАКСУДБЕК НОРБЕКОВИЧ**
Правовое регулирование отношений по продаже долей в обществе с ограниченной ответственностью: теория и практика

12.00.04 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. АРБИТРАЖ И МЕДИАЦИЯ

- 117 **СУЛТОНОВА СЕВИНЧ БЕКМУРОД КИЗИ, МИРЗАЕВ ИСЛОМЖОН ХУШНАЗАР УГЛИ**
Оставление заявления без рассмотрения и право на частную жалобу: практика, проблемы и предложения

12.00.06 – ПРИРОДОРЕСУРСНОЕ ПРАВО. АГРАРНОЕ ПРАВО. ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ПРАВО

- 124 **РАЖАБОВ НАРИМАН ШАРИФБАЕВИЧ**
Перспективы развития национальной системы стандартизации Узбекистана в сфере охраны окружающей среды

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

- 133 **НИЁЗОВА САЛОМАТ САПАРОВНА**
Учёт поведения потерпевшего при назначении наказания лицу за совершённое в состоянии сильного душевного волнения умышленное убийство
- 143 **ЧОРИЕВ АНВАР КУЗИЕВИЧ**
Социальная необходимость установления уголовной ответственности за нарушение законодательства о персональных данных

12.00.09 – УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС. КРИМИНАЛИСТИКА. ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКОЕ ПРАВО. СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА

153 **СУЛТОНОВА ЛОБАР МАМАРАИМ КИЗИ**

Понятие, значение и роль экстрадиции в международном сотрудничестве

12.00.10 – МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО

168 **ЮСУПОВА ФАРИНГИЗ УКТАМ КИЗИ**

Международно-правовые и концептуальные основы обеспечения безопасности медицинской информации

177 **РАСБЕРГЕНОВА САРБИНАЗ АЛИШЕРОВНА**

Региональные договорно-правовые механизмы в сфере обеспечения права на благоприятную окружающую среду

12.00.12 – ПРОБЛЕМЫ КОРРУПЦИИ

187 **МИРЗАЕВА МОХИНА СРОЖИДДИНОВНА**

Коррупционные риски в сфере дорожно-транспортной инфраструктуры в Узбекистане и механизмы их преодоления

CONTENTS

12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCIAL AND CUSTOMS LAW

- 11 **SAFAROV DJAKHONGIR ISMOILOVICH**
Some considerations on improving the criminal legislation based on the new edition of the Constitution of the Republic of Uzbekistan
- 19 **NARIMANOV BEKZOD ABDUVALIEVICH**
Legal regulation of non-governmental non-profit organizations: theoretical and legal aspects and models

12.00.03 – CIVIL LAW. BUSINESS LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

- 26 **SAID GULYAMOV SAIDAKHRAROVICH**
Theoretical foundations of cyberlaw: a conceptual model for legal regulation
- 40 **MAMANAZAROV SARDOR SHUKHRATOVICH**
Peculiarities of civil-legal relations in the field of modern biotechnology
- 52 **SAMANDAROVA FERUZA BAKHROMJON KIZI**
Evaluation of public procurement transactions as a special type of contract
- 62 **ABDUVALIEV BAHODIR ABDULKHAYEVICH**
Analysis of the legal framework for the development of smart cities in the Republic of Uzbekistan: current state and prospects for improvement
- 74 **MAMADALIEV AVVOLBEK ZIYOITDINOVICH**
Genesis of views on the phenomenon of abuse of law
- 84 **RAKHMATOV AZIZBEK ISKANDAR UGLI**
Mechanisms for financing entrepreneurial activities and prospects for their improvement
- 97 **RODIONOV ANDREY ALEKSANDROVICH**
Convergence and divergence of civil legal regulation of data in blockchain technologies: EU data act experience and prospects for Uzbekistan
- 105 **SAIDOV MAKSUDBEK NORBOYEVICH**
Legal regulation of relations on sale of shares in a limited liability company: theory and practice

12.00.04 – CIVIL PROCEDURAL LAW. ECONOMIC PROCEDURAL LAW. ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

- 117 **SULTONOVA SEVINCH BEKMUROD KIZI, MIRZAEV ISLOMJON KHUSHNAZAR UGLI**
Dismissal of an application without consideration and the right to a private complaint: practice, problems and proposals

12.00.06 – THE LAW OF NATURAL RESOURCES. AGRARIAN LAW. ENVIRONMENTAL LAW

- 124 **RAJABOV NARIMAN SHARIFBAYEVICH**
Prospects for the development of the national standardization system of Uzbekistan in the field of environmental protection

12.00.08 – CRIMINAL LAW. CRIMINAL-EXECUTIVE LAW

- 133 **NIYOZOVA SALOMAT SAPAROVNA**
Consideration of the victim's behavior when sentencing a person who commits intentional homicide in a state of intense emotional excitement
- 143 **CHORIEV ANVAR KUZIEVICH**
Social necessity of establishing criminal liability for violation of legislation on personal data

12.00.09 – CRIMINAL PROCEEDINGS. FORENSICS, INVESTIGATIVE LAW AND FORENSIC EXPERTISE

- 153 **SULTONOVA LOBAR MAMARAYIM KIZI**
The concept, significance, and role of extradition in international cooperation

12.00.10 – INTERNATIONAL LAW

168 **YUSUPOVA FARINGIZ UKTAM KIZI**

International legal and conceptual foundations for ensuring the security of medical data

177 **RASBERGENOVA SARBINAZ ALISHEROVNA**

Regional contract-legal mechanisms in the sphere of ensuring the right to a favorable environment

12.00.12 – CORRUPTION PROBLEMS

187 **MIRZAEVA MOHINA SROJIDDINOVA**

Corruption risks in the field of road transport infrastructure in Uzbekistan and mechanisms for their elimination

Kelib tushgan / Получено / Received: 07.08.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 05.09.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 26.09.2025

DOI: 10.51788/tsul.rols.2025.9.3./OFKS9389

UDC: 342.4(045)(575.1)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYASI ASOSIDA JINOYAT QONUNINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA AYRIM MULOHAZALAR

Safarov Djaxongir Ismoilovich,

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
mas'ul xodimi,
yuridik fanlar doktori, dotsent
ORCID: 0009-0000-7199-4071
e-mail: jaxongir@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi asosida jinoyat qonunini takomillashtirishning bir qator yo'nalishlari tahlil qilindi. Bunda ilmiy bilishning tahliliy, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, tizimli-tuzilmaviy va formal yuridik o'rganish usullaridan foydalanildi. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi tegishli qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishidan yoki mavjudligidan qat'i nazar, to'g'ridan to'g'ri amal qiladi, bu esa boshqa qonun hujjatlari, shu jumladan, insonning asosiy huquq va erkinliklariga daxl qiluvchi jinoyat qonunining ham Konstitutsiyaga muvofiqligini ko'rib chiqishni taqozo etadi. Shu munosabat bilan maqolada yangi tahrirdagi Konstitutsiyadan kelib chiqib, Jinoyat kodeksini takomillashtirish bo'yicha soha vakillari oldida turgan asosiy vazifalar haqida fikr yuritilgan. Xususan, jinoiy jazo choralari mutanosiblik va yetarlilik konstitutsiyaviy prinsiplariga muvofiqligi nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqish yo'nalishida ozodlikni cheklash jazosini qo'llash mumkin bo'lgan shaxslar doirasini aniq belgilash, Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jazo choralari eng kam va eng ko'p miqdorlari oralig'idagi jazo choralari qo'llash asoslarini tushuntiruvchi qo'llanma tayyorlash, mutanosiblik va yetarlilik kabi konstitutsiyaviy prinsiplardan kelib chiqib, ayrim jinoyatlarni dekriminalizatsiya qilish hamda ayrim jinoiy jazo miqdorlarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha takliflar ilgari surilgan. Shuningdek, Jinoyat kodeksining tegishli institutlarini davlatning jabrlanganlarga yetkazilgan zararning o'rni qoplanishi uchun shart-sharoitlar yaratish to'g'risidagi konstitutsiyaviy majburiyatini amalga oshirish nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqish hamda Jinoyat kodeksida taqiqlangan ayrim jinoyat tarkiblarini yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiqlashtirish bo'yicha ham aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: konstitutsiya, konstitutsiyaviy prinsip, mutanosiblik prinsipi, yetarlilik prinsipi, jazo tizimi, ozodlikni cheklash, dekriminalizatsiya, jabrlanuvchi, zarar

НЕКОТОРЫЕ СУЖДЕНИЯ ПО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ УГОЛОВНОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА НА ОСНОВЕ НОВОЙ РЕДАКЦИИ КОНСТИТУЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Сафаров Джахонгир Исмаилович,
доктор юридических наук, доцент,
ответственный сотрудник Администрации
Президента Республики Узбекистан

Аннотация. В статье проанализированы основные направления совершенствования уголовного законодательства на основе новой редакции Конституции Республики Узбекистан. В ходе исследования использованы аналитический, обобщающий, сравнительно-правовой, системно-структурный и формально-юридический методы научного познания. Новая редакция Конституции Республики Узбекистан действует непосредственно, независимо от принятия или наличия соответствующих законов и иных нормативно-правовых актов, что требует пересмотра соответствия других законодательных норм, включая уголовное законодательство, затрагивающее основные права и свободы человека, положениям Конституции. В этой связи в статье рассматриваются ключевые задачи, стоящие перед специалистами в области уголовного права по совершенствованию Уголовного кодекса. В частности, в контексте конституционных принципов пропорциональности и достаточности наказаний предлагается: чётко определить круг лиц, к которым может применяться наказание в виде ограничения свободы; подготовить руководство по применению наказаний, разъясняющее основания назначения наказаний в пределах минимальных и максимальных размеров, предусмотренных Уголовным кодексом; на основе принципов пропорциональности и достаточности внести предложения по декриминализации отдельных деяний, а также по пересмотру размеров отдельных уголовных наказаний. Кроме того, в статье выдвинуты предложения по пересмотру соответствующих институтов Уголовного кодекса с учётом конституционной обязанности государства создавать условия для возмещения ущерба, причинённого потерпевшим. Также предложены конкретные рекомендации по приведению отдельных составов преступлений, предусмотренных уголовным законодательством, в соответствие с новой редакцией Конституции.

Ключевые слова: конституция, конституционный принцип, принцип пропорциональности, принцип достаточности, система наказаний, ограничение свободы, декриминализация, потерпевший, ущерб

SOME CONSIDERATIONS ON IMPROVING THE CRIMINAL LEGISLATION BASED ON THE NEW EDITION OF THE CONSTITUTION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Safarov Djakhongir Ismoilovich,
Responsible Officer of the Administration of the President
of the Republic of Uzbekistan
Doctor of Science in Law, Associate Professor

Abstract. The article analyzes a number of directions for improving criminal law based on the new version of the Constitution of the Republic of Uzbekistan. In this case, analytical, generalizing, comparative-legal, system-structural, and formal-legal methods of scientific knowledge were used. The Constitution of the Republic of Uzbekistan in the new edition is directly applicable regardless of the adoption or existence of relevant laws and other regulatory legal acts, which requires consideration of the constitutionality of other legislative acts, including criminal law affecting fundamental human rights and freedoms. In this regard, the article discusses the main tasks facing industry representatives

in improving the Criminal Code based on the new version of the Constitution. In particular, in the direction of reviewing the measures of criminal punishment from the point of view of compliance with the constitutional principles of proportionality and sufficiency, proposals have been put forward to clearly define the range of persons to whom the punishment of restriction of liberty can be applied, to prepare a manual explaining the grounds for applying punitive measures between the minimum and maximum amounts of punitive measures provided for in the Criminal Code, to decriminalize certain crimes, and to review the amounts of certain criminal punishments based on such constitutional principles as proportionality and sufficiency. Also, specific proposals and recommendations have been developed for reviewing the relevant institutions of the Criminal Code in terms of implementing the constitutional obligation of the state to create conditions for compensation for damage caused to victims, as well as for bringing certain elements of crimes prohibited by the Criminal Code into compliance with the new version of the Constitution.

Keywords: constitution, constitutional principle, principle of proportionality, principle of adequacy, system punishment system, restriction of liberty, decriminalization, victim, damage

Kirish

2023-yil 30-aprelda xalqimiz tafakkuri va siyosiy-huquqiy ongining yuksak namunasi sifatida o'tkazilgan referendumda O'zbekiston Respublikasining umumxalq ovozi berish yo'li bilan qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi [1] huquqshunos olimlar oldiga barcha huquq sohalarini yangilangan asosiy qonun asosida qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish bo'yicha jiddiy vazifalarni qo'ydi [2].

Referendum yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-mayda e'lon qilingan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'RQ-837-son Konstitutsiyaviy qonunida [3] u kuchga kirguniga qadar O'zbekiston hududida amalda bo'lgan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga zid bo'lmagan qismiga ko'ra qo'llanishi, shuningdek, yangi tahrirdagi Konstitutsiya normalari tegishli qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishidan yoki mavjudligidan qat'i nazar, to'g'ridan to'g'ri amal qilishi belgilanganligi o'z navbatida bu boradagi mas'uliyatni yanada kuchaytirdi.

Material va metodlar

Tadqiqot jarayonida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar natijasida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyadan kelib chiqib, soha

va tarmoq qonun hujjatlarini qayta ko'rib chiqish va muvofiqlashtirish zarurati ochib berishga harakat qilindi.

Bu mas'uliyat, ayniqsa, jinoyat qonuni uchun yanada dolzarblashadi. Zero, adabiyotlarda ta'kidlanganidek, "jinoyat qonunini adolat nuqtayi nazaridan davlat irodasining aksi, jamiyatning uning alohida a'zosiga nisbatan munosabati sifatida ko'rish mumkin. Jinoyat qonunida xalq irodasi bilan qabul qilingan qonun va qoidalarni buzishning ijtimoiy xavfli darajasi uchun sanksiyalar qamrab olingan bo'lib, ushbu harakatlarga nisbatan ma'muriy va fuqarolik javobgarligini qo'llash yetarli bo'lmaydi. Jinoiy javobgarlikning yo'qligi yoki yetarli emasligi boshqa qonunlarni insofsiz ijrochilari oldida kuchsiz qilib qo'ygan bo'lardi, insonning tabiiy huquqlarini xavf ostida qoldirardi" [1].

Shu bois, ushbu maqolada ilmiy bilishning tahliliy, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, tizimli-tuzilmaviy va formal yuridik o'rganish usullaridan foydalanilgan holda O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi asosida jinoyat qonunini takomillashtirish bo'yicha ayrim mulohazalar bildirildi.

Tadqiqot natijalari

Huquqshunos olimlar Konstitutsiya jinoyat huquqining muhim manbayi hamda jinoyat qonunini takomillashtirish uchun asos ekanini e'tirof etadilar [4]. Shunga ko'ra, ta'kidlash lozimki, yangi tahrirdagi Konsti-

tutsiya barcha huquq sohalari singari jinoyat huquqi oldiga ham bir qator vazifalarni qo'ymoqda. Ushbu maqolada mazkur vazifalarning ayrimlari haqida to'xtalib o'tamiz.

Birinchidan, jinoiy jazo choralari mutanosiblik va yetarlilik konstitutsiyaviy prinsiplariga muvofiqligi nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqish zarur. Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 20-moddasiga muvofiq, davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo'llanadigan huquqiy ta'sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi kerak.

Ma'lumki, huquqiy ta'sir choralariga jinoiy, ma'muriy, intizomiy jazo choralari, moliyaviy sanksiya, neustoyka (penya, jarma), litsenziyani to'xtatish yoki bekor qilish, da'voni ta'minlash choralari, sud jarimalari, ma'muriy qamoq, ma'muriy tartibda uy-joyidan ko'chirish kabilar kiradi [5]. Qonunchilikning batafsil tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston Respublikasining 1990–2023-yillarda qabul qilingan 11 ta kodeksi va 253 ta yaxlit qonunida jami 162 ta huquqiy ta'sir choralari nazarda tutilgan. Xususan, Jinoyat kodeksida [6] nazarda tutilgan jinoiy jazolar va tibbiy yo'sindagi majburlov choralari ham huquqiy ta'sir chorasi hisoblanib, yangilangan Konstitutsiyadan kelib chiqib, ularning mutanosiblik va yetarlilik prinsiplariga muvofiqligini ko'rib chiqish zarur.

Jinoyatchiga nisbatan qo'llanishi nazarda tutilgan jinoyat-huquqiy ta'sir choralarining mutanosiblik va yetarlilik talablariga muvofiq bo'lishining konstitutsiyaviy sharti jinoiy javobgarlik choralari differentsiatsiya qilishni, shu jumladan, jinoyat qonunida turlicha miqdordagi va huquqni cheklovchi turdagi har xil jazo choralari, o'zaro farqlanuvchi va muqobil sanksiyalar mavjudligini, sudlarga jinoiy jazoni tayinlashni individuallashtirish imkonini beruvchi muayyan mezonlar mavjudligini nazarda tutadi [7; 8].

Albatta, Jinoyat kodeksining insonparvarlik (jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan

u axloqan tuzalishi va yangi jinoyat sodir etishining oldini olish uchun zarur hamda yetarli bo'ladigan jazo tayinlanishi yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi qo'llanishi) va odillik (shaxsga nisbatan qo'llanadigan jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi odilona bo'lishi, ya'ni jinoyatning og'ir-yengilligiga, aybning va shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasiga muvofiq bo'lishi kerakligi) prinsiplari ma'lum darajada mutanosiblik va yetarlilik prinsiplarini qamrab oladi.

Shunday bo'lsa-da, yangi tahrirdagi Konstitutsiya talablari asosida jinoiy jazolar tizimi va miqdorini qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz.

Ikkinchidan, Jinoyat kodeksining tegishli institutlarini davlatning jabrlanganlarga yetkazilgan zararining o'rni qoplanishi uchun shart-sharoitlar yaratish to'g'risidagi konstitutsiyaviy majburiyatini amalga oshirish nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqish zarur.

Ma'lumki, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 29-moddasida huquqbuzarliklardan jabrlanganlarning huquqlari qonun bilan muhofaza qilinishi, davlat jabrlanganlarga himoyalaniшни va odil sudlovdan foydalanishni ta'minlashi, ularga yetkazilgan zararining o'rni qoplanishi uchun shart-sharoitlar yaratishi belgilandi.

Boshqacha aytganda, davlat asosiy qonun bilan o'z zimmasiga jabrlanganlarga yetkazilgan zararining o'rni qoplanishi uchun shart-sharoitlar yaratish majburiyatini oldi. Albatta, jabrlanganlarga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash uchun shart-sharoitlar yaratish kompleks ish bo'lib, bu nafaqat jinoyat-huquqiy, balki jinoyat-protsessual va ma'muriy vositalarni takomillashtirishni, uning institutsional asoslarini yaratishni ham talab qiladi.

Uchinchidan, Jinoyat kodeksida taqiqlangan ayrim jinoyat tarkiblarini yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiqlashtirish lozim. Shu nuqtayi nazardan ushbu maqola doirasida Jinoyat kodeksidagi ayrim moddalarni yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga shaklan va

mazmunan moslashtirish bo'yicha ba'zi mu-
lohalazalarni ham bildirib o'tish o'rinli bo'ladi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Jinoiy jazo choralari mutanosiblik va yetarlilik konstitutsiyaviy prinsiplariga muvofiqligi nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqish bo'yicha birinchi yo'nalish doirasida, ta'kidlash lozimki, Jinoyat kodeksining 43-moddasiga muvofiq, jinoiy jazo tizimi 9 ta asosiy va 1 ta qo'shimcha jazolardan iborat [9]. Jazo choralari mutanosiblik va yetarlilik kabi konstitutsiyaviy prinsiplarga muvofiqligi nuqtayi nazardan baholaganda bir qator tizimli va joriy muammolar ko'zga tashlanadi.

Birinchi – ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazolar Jinoyat qonunida bir xil og'irlikdagi jazo choralari sifatida nazarda tutilgan bo'lsa-da, amalda ular o'rtasidagi tafovut juda ham katta ekanligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Boshqacha aytganda, barcha sudlanuvchilar ozodlikdan mahrum etish chorasini emas, ozodlikni cheklash tarzidagi jazo chorasini tayinlanishini so'raydilar.

Ushbu jazo choralari tabiati o'rtasidagi farq sudlanuvchilarning erkinligini cheklash darajasi, ularni saqlash muhiti va bu bilan bog'liq bo'lgan boshqa jihatlari tufayli keskin farq qiladi. Eng asosiysi, ozodligi cheklangan shaxs ozodligidan to'liq mahrum bo'lmaydi va u jamiyatdan ajratilmay saqlanadi. Ozodlikni cheklash jazo chorasining ozodlikdan mahrum etishga muqobil chora sifatidagi ijtimoiy ahamiyatini kamsitmagan holda u tom ma'noda ozodlikdan mahrum etishga teng emasligini ishonch bilan ta'kidlash mumkin.

Shundan kelib chiqqan holda *ozodlikdan cheklash tarzidagi jazo chorasini qo'llash mumkin bo'lgan shaxslar doirasini aniq belgilab qo'yishni* taklif qilamiz. Xususan, ozodlikdan cheklash jazosini homilador yoki bolalari uch yoshga to'lmagan ayollarga, voyaga yetmaganlarga va oltmish yoshdan oshgan erkaklarga, nogironligi bo'lgan shaxslarga, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va ehtiyotsizlik

oqibatida (odam o'limiga sabab bo'lgan holatlar bundan mustasno) jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan tayinlanishi mumkinligini belgilash maqsadga muvofiq.

Ozodlikni cheklash tarzidagi jazo qo'llanishi mumkin bo'lgan doiraning bu tarzda aniqlashtirishi jazoning mutanosibligi va yetarliligini, ijtimoiy adolat va qonuniylikni ta'minlaydi, shuningdek, sud tizimida korrupsiya ehtimolini va jabrlanuvchining noroziligini kamaytiradi.

Ikkinchi – sud amaliyotidagi eng katta muammo Jinoyat kodeksi maxsus qismidagi u yoki bu moddaning sanksiyasini qo'llashda namoyon bo'ladi. Masalan, JK 97-moddasi (qasddan odam o'ldirish) birinchi qismi bo'yicha 10 yildan 15 yilgacha, ikkinchi qismi bo'yicha esa 15 yildan 25 yilgacha ozodlikdan mahrum etish jazosi tayinlanishi mumkin. Yoki bolani chet davlat hududida nazoratsiz qoldirganlik (122¹-modda) uchun bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima qo'llanishi mumkin. Ya'ni ushbu vaziyatda jazo choralari eng kam va eng ko'p miqdori o'rtasidagi oraliq juda katta, masalan, JK 97-moddasi bo'yicha 5 yildan 10 yilgachani, JK 122¹-moddasi bo'yicha esa BHMning 50 baravarini tashkil etmoqda [10].

Bu kabi holat JKning barcha moddalarida uchraydi. Albatta, bunday yondashuv boshqa davlatlar tajribasida ham bor va umuman bu ijtimoiy zarurat hisoblanadi [11]. Chunki barcha jinoyat ishlarini bitta qolipda ko'rib chiqib bo'lmaydi. Jazoning aniq miqdorini sud yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni hisobga olgan holda o'zining ichki ishonchidan kelib chiqib belgilaydi.

Shu bilan birga, xorijiy davlatlarda, masalan, AQSh, Buyuk Britaniya va boshqa davlatlarda sudlar uchun uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqilgan bo'lib, unda JK har bir moddasiga ko'ra JKda belgilangan jazo choralari to'g'ri qo'llash bo'yicha yo'riqnoma keltirilgan [12]. Ya'ni JK 97-moddasi ikkinchi qismi bo'yicha qachon 15 yil, qachon 16 yil,

qachon 25 yilga ozodlikdan mahrum etish qo'llanishi lozimligi ko'rsatib berilgan. Shuningdek, bu qo'llanma jinoyat ishlarini ko'rib chiqish davomida to'plangan tajribadan kelib chiqib, har yili takomillashtirib boriladi. Fikrimizcha, bizda ham shunday qo'llanma tayyorlanib, JK maxsus qismidagi har bir moddada nazarda tutilgan jazo choralarining eng kam va eng ko'p miqdorlari oralig'idagi jazo choralarini qo'llash asoslari tushuntirib berilsa, sud amaliyoti bir xillashuviga va jazoning adolatli tayinlanishiga xizmat qilgan bo'lardi.

Uchinchi – umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi davlatning ayrim hollarda mahkumni axloqan tuzatish bo'yicha jazo maqsadiga erishishning imkoni yo'qligini rasman tan olishi deb hisoblaymiz. Ushbu jazo chorasining qo'llanishi u tayinlangan vaqtda qanchalik adolatli bo'lib tuyulmasin, baribir shaxsni kelajakka hech bir umidsiz butun umrga ozodligidan mahrum qilish noto'g'ri bo'lsa kerak. Shunga ko'ra, *o'rta istiqbolda* umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini shaxs muayyan muddat (masalan, 25 yil) jazoni o'tab bo'lganidan so'ng ozodlikni cheklash jazosiga almashtirish imkoniyatini berish, *uzoq istiqbolda* esa ushbu jazo chorasini bekor qilish masalasini o'ylab ko'rish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

To'rtinchi – mutanosiblik va yetarlilik kabi konstitutsiyaviy prinsiplardan kelib chiqib, *jinoiy jazo miqdorlarini qayta ko'rib chiqish*. Xususan, JKning oilaga, yoshlarga va axloqqa, shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga, iqtisodiyot asoslariga qarshi hamda xo'jalik faoliyati sohasidagi ayrim jinoyatlar (Jinoyat kodeksi 104-, 105-, 122-, 127-, 131-, 165-, 166-, 167-, 168-, 169-, 182-, 184-, 188-, 189-, 205-, 207-, 209-, 210-, 211-, 219-, 223-, 227-, 228-, 229¹-, 257-, 266-, 270-, 273-, 276-, 277-moddalarining tegishli qismlarida nazarda tutilgan jinoyatlar) bo'yicha jazolar miqdorini qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Beshinchi – mutanosiblik va yetarlilik kabi konstitutsiyaviy prinsiplardan kelib chiqib, *ayrim jinoyatlarni dekriminalizatsiya qilish*. Xususan, yaqin va o'rta istiqbolda tuhmat (JK 139-moddasi), haqorat qilish (JK 140-moddasi), rangli metallar, ularning parcha va rezgi chiqitlarini tayyorlash, olish, ulardan foydalanish hamda ularni o'tkazish qoidalarini buzish (JK 185¹-moddasining birinchi qismi), ma'muriy nazorat qoidalarini buzish (JK 226-moddasining birinchi qismi) kabi jinoyatlarni dekriminalizatsiya qilish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Davlatning jabrlanganlarga yetkazilgan zararining o'rni qoplanishi uchun shart-sharoitlar yaratish to'g'risidagi konstitutsiyaviy majburiyatni amalga oshirish bo'yicha *ikkinchi yo'nalish* doirasida ushbu konstitutsiyaviy majburiyat jinoyat qonuni normalarini takomillashtirishni ham taqozo etayotganini ta'kidlash lozim. Xususan, Jinoyat kodeksi umumiy qismida shartli hukm qilish (72-modda), jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish (73-modda), jazoni yengilrog'i bilan almashtirish (74-modda) kabi yengillashtiruvchi va rag'batlantiruvchi institutlar mavjud. Fikrimizcha, ushbu institutlarni qo'llashning majburiy sharti sifatida *keltirilgan zararining bartaraf qilinganligini* kiritish zarur. Bu orqali ayblanuvchilarning yetkazilgan zararining o'rnini qoplashga bo'lgan qiziqishi ortadi va jabrlanuvchiga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash uchun shart-sharoit yaratiladi.

Jinoyat kodeksida taqiqlangan ayrim jinoyat tarkiblarini yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiqlashtirishga qaratilgan *uchinchi yo'nalish* doirasida Jinoyat kodeksidagi ayrim moddalarni yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga shaklan va mazmunan moslashtirish bo'yicha quyidagilarga e'tibor qaratish taklif etiladi:

birinchi – Jinoyat kodeksining 148-moddasi (Mehnat qilish huquqini buzish) ikkinchi qismida ayolni homiladorligi yoki shaxsni yosh bolani parvarish qilayotganini bila turib,

uni ishga olishdan g'ayriqonuniy ravishda bosh tortish yoki ishdan bo'shatish uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Vaholanki, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 42-moddasida nafaqat homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish yoki ishdan bo'shatish, shuningdek, *ularning ish haqini kamaytirish* ham taqiqlangan. Shunday kelib chiqib, ayollarning va yosh bolasi borlarning konstitutsiyaviy huquqlarini ishonchli tarzda himoya qilish maqsadida Jinoyat kodeksi 148-moddasini qayta ko'rib chiqish taklif etiladi;

ikkinchi – Jinoyat kodeksi 148¹-moddasida (Voyaga yetmagan shaxslarning mehnatidan foydalanishga yo'l qo'yilmasligi to'g'risidagi talablarni buzish) voyaga yetmagan shaxs mehnatidan uning sog'lig'iga, xavfsizligiga yoki axloq-odobiga ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan ishlarda foydalanish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan (ma'muriy preyuditsiyaga ega). Holbuki, yangilangan Konstitutsiyaning 44-moddasida bolalar mehnatining bolaning sog'lig'iga, xavfsizligiga, axloqiga, *aqliy va jismoniy rivojlanishiga* xavf soluvchi, shu jumladan, uning *ta'lim olishiga to'sqinlik qiluvchi* har qanday shakllari taqiqlangan. Shunga ko'ra, JK 148¹-moddasini ham yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga moslashtirish lozim;

uchinchi – O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustdagi O'RQ-391-sonli qonuni bilan Jinoyat kodeksi "Tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilish, qonunga xilof ravishda aralashish bilan bog'liq jinoyatlar hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga tajovuz qiladigan boshqa jinoyatlar"ga oid XIII¹ bob bilan to'ldirilgan.

Shu bilan birga, yangilangan Konstitutsiyaning 67-moddasida O'zbekiston Respublikasi hududida tovarlar, xizmatlar, mehnat

resurslari va moliyaviy mablag'larning erkin harakatlanishi kafolatlanishi belgilangan. Lekin amaliyotda ayrim hollarda mansabdor shaxslar tomonidan ushbu konstitutsiyaviy norma buzilishi holatlariga yo'l qo'yilayotgani ham kuzatilmoqda.

Tadbirkorlik subyektlariga yangilangan Konstitutsiya bilan mustahkamlangan kafolatlardan foydalanishlari uchun sharoit yaratish hamda mansabdor shaxslarning bu boradagi mas'uliyatini oshirish maqsadida JK XIII¹ bobiga ushbu konstitutsiyaviy kafolatni buzganlik uchun javobgarlikni belgilash maqsadga muvofiq;

to'rtinchi – kezi kelganda, ekolog-huquqshunos olimlar [13–15] tomonidan ko'p yillardan beri ta'kidlab kelinayotgan *ekologiya sohasidagi jinoyatlar tarkiblarini moddiy tarkibli emas, formal tarkibli etib belgilash* to'g'risidagi taklifning realizatsiya qilinishi ham yangilangan Konstitutsiyaning 49-moddasida belgilangan barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha davlat majburiyatini amalga oshirish yo'lida muhim qadam bo'lardi.

Xulosalar

Yuqoridagilar asosida muxtasar qilib aytganda, yangilangan Konstitutsiya to'g'ridan to'g'ri amal qiluvchi oliy yuridik hujjat sifatida juda ko'plab yangi normalarni belgilab berdi hamda bu o'z navbatida barcha huquq sohalari va tarmoqlari bo'yicha qonun va qonunosti hujjatlarni yangilangan Konstitutsiya asosida qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan mazkur maqolada yoritilayotgan jinoyat qonunini takomillashtirish bo'yicha ayrim jihatlar sohadagi ishlarning bir qismidir. Ushbu yo'nalish soha mutaxassislari tomonidan yanada kengroq o'rganilishi va yoritilishi lozim.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi [Constitution of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, "O'zbekiston" Publ., 2023.
2. Safarov Dj.I. Zamonaviy konstitutsiyaviy-huquqiy islohotlar sharoitida parlament yuqori palatasi faoliyatini isloh etish: asosiy tendensiyalar va rivojlanish istiqbollari [Reform of the activities of the upper house of parliament in the context of modern constitutional and legal reforms: main trends and development prospects]. *Jurisprudence: Legal Scientific and Practical Journal*, 2023, vol. 3, Special issue, pp. 27–37.
3. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'RQ-837-son Konstitutsiyaviy Qonuni [Constitutional Law of the Republic of Uzbekistan No. LRU-837 "On the Constitution of the Republic of Uzbekistan" dated May 1, 2023]. Available at: <https://lex.uz/uz/docs/6449033>
4. Elinskiy A. Konstitutsionnoe izmerenie ugolovnogo prava [The constitutional dimension of criminal law]. *Comparative Constitutional Review*, 2012, no. 3 (88), pp. 159–160.
5. Ochilov X.R. Jinoyat huquqi [Criminal law]. Tashkent, "Yuridik adabiyotlar publish" Publ. 2022, p. 176.
6. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi [Criminal Code of the Republic of Uzbekistan]. Available at: <https://lex.uz/mact/111453>
7. Sarpekov R.K., Raxmetov S.M., Axpanov A.N. Puti sovershenstvovaniya ugolvnoy politiki Respubliki Kazaxstan [Ways to improve the criminal policy of the Republic of Kazakhstan]. Almaty, 2020, p. 238.
8. Guzeeva O.S. Konstitutsionnye nachala sorazmernosti i proporsionalnosti ugolovnogo nakazaniya [Constitutional principles of proportionality and proportionality of criminal punishment]. *Bulletin of the Saint Petersburg University of the Ministry of Internal Affairs of Russia*, 2021, no. 3 (91), pp. 74–75.
9. Jinoyat kodeksi. To'rtinchi bo'lim. Jazo va uni tayinlash [Criminal Code, Part Four. Punishment and its imposition]. Available at: <https://lex.uz/mact/111453>
10. Jinoyat kodeksi. Maxsus qism. Birinchi bo'lim. Shaxsga qarshi jinoyatlar [Criminal Code. Special Part, Section One, Crimes against the Person]. Available at: <https://www.lex.uz/acts/111453>
11. United Nations Office on Drugs and Crime. Handbook on Sentencing Policies and Practices in the Criminal Justice System. New York, 2021.
12. United States Sentencing Commission. Federal Sentencing Guidelines Manual. Washington, D.C., 2023.
13. Safarov Dj.I. Ekologik qonunchilikni buzganlik uchun jinoiy javobgarlik: muammo va mulohaza [Criminal liability for violation of environmental legislation: problems and considerations]. Tashkent, TSIL, 2010, pp. 313–317.
14. Safarov Dj.I. Konstitutsionno-pravovoye osnovy ekologicheskoy politiki Novogo Uzbekistana: sravnitel'no-pravovoy analiz [Constitutional and legal bases of environmental policy of the New Uzbekistan: comparative legal analysis]. *Journal of Foreign Legislation and Comparative Law*, Moscow, 2024, no. 4.
15. Kondrashova O.A. Ekologicheskoe prestuplenie i pravonarushenie [Environmental crime and offense]. *Young Don Researcher*, 2020, no. 2 (23), p. 159.
16. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga xususiy mulkni, tadbirkorlik subyektlarini ishonchli himoya qilishni yanada kuchaytirishga, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 2015-yil 20-avgustdagi O'RQ-391-sonli Qonuni [Law of the Republic of Uzbekistan No. LRU-391 dated August 20, 2015 "On Amendments and Addenda to Certain Legislative Acts of the Republic of Uzbekistan Aimed at Further Strengthening the Reliable Protection of Private Property and Business Entities, and Eliminating Obstacles to Their Rapid Development"]. Available at: <https://lex.uz/docs/-2724496?ONDATE=30.04.2023>

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal
Правовой научно-практический журнал
Legal scientific-practical journal

2025-yil 3-son

VOLUME 9 / ISSUE 3 / 2025
DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2025.9.3